



SHAXSLARARO MUNOSABATLARDA SHAXS AGRESSIYA

Toshpo'latov Abdulaziz Quvondiq o'g'li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Pedagogika fakulteti Pedagogika va psixologiya yo'nalishi
2-kurs talabasi
abdulaziztoshpolatov26@gmail.com
+998943661073

Ummatova Zamira Atamuradovna

Toshkent viloyati Chirchiq shahri 11-maktab psixologi
+998998872248
zamiraummatova5@gmail.com
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7869857>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 20-april 2023 yil
Ma'qullandi: 24-april 2023 yil
Nashr qilindi: 27-april 2023 yil

KEY WORDS

Shaxslararo munosabatlar, empatiya, agressiya, verbal, nonverbal, shaxs, og'zaki, jamiyat, axloq, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", jinoyat.

ABSTRACT

Ushbu maqolada oiladagi shaxslararo munosabatlarning tiplariga va agressiya tushunchasiga qisqacha ta'rif berilgan. Agressivlikni oldini olish bo'yicha chora tadbirlariga alohida urg'u berilgan. Shuningdek, tarixiy-falsafiy ta'limotlar taraqqiyotida G'arb va Sharq olimlari tomonidan shaxslararo munosabatlar tushunchalari berilgan ta'rif va nazariyalar qiyosiy tahlil qilinadi.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng shaxsning har tomonlama, yaxlit rivojlanishiga yo'l ochildi. Shubhasizki, ushbu holat davlatimizning qator farmon va qarorlari bilan mustahkamlanmoqda. Xususan, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" ning hayotga tadbiq qilinishi fikrimiz isbotidir. Shakllanib kelayotgan yangi avlod kadrlar misolida ham ko'rib turibmiz.

Fuqorolik va huquqiy davlat bunyod etilayotgan hozirgi sharoitda jamiyatning moddiy texnik bazasini mustahkamlash, madaniy -ma'rifiy ishlarni amalga oshirish asosida ma'naviy o'zlikni anglash hisoblanadi.

Qurol nafaqat jinoyat sodir qilishga imkon beradi deydi u, - balki u jinoyat sodir qilishga undashi mumkin. Barmoq tepkiga talpinadi, shuningdek, tepki ham barmoqqatalpinadi". Bu tushuncha agressiyani emotsiya, motiv yoki kòrsatma sifatida emas, balkixulq – atvor modeli sifatida kòrishni taqozo etadi. Bu muhim fikr kòplab chalkashliklarnitug'dirdi. Agressiya termini kòp hollarda g'azab kabi negativ (salbiy) his – tuyg'ular bilan, haqorat qilish va ziyon yetkazish kabi motivlar bilan, hatto negativ kòrsatmalar sirasigakiruvchi irqiy va etnik xurofot bilan assotsiatsiyalanadi. Bu omillar natijasi zarar yetkazishbòlgan xulq – atvorda albatta muhim rol òynashiga qaramay, ular bunday harakatlar uchunasos bòla olmaydi. G'azab boshqalarga tajovuz qilish uchun aslo zaruriy shart bòlibhisoblanmaydi, boshqacha qilib aytganda, ayrim holatlarda agressiya òta sovuqqonlikholatida yuzaga kelishi mumkin bòlgani kabi, òta kuchli hayajon holatida ham paydo bòlishi mumkin.

Shuningdek, agressorlarning ular tajovuz qilayotgan shaxslardan nafratlanishlari yoki ularni yoqtirishlari umuman shart emas. Kòpchilik odamlar òzlari yoqtirgan insonlargazulm òtkazadilar. Hozirda kòpchilik tomonidan "Agressiya – boshqa tirik jonzoatga ubuni istamagan vaziyatda haqiqat yoki ziyon yetkazishni maqsad qilib qòygan xulq atvorning har qanday shakli", degan tushuncha qabul qilingan. Psixologiyada agressiv xulq– atvor quyidagicha klassifikatsiya qilinadi:

1. Agressiyaning dardmanlik darajasidagi alomatlar (tutaqib ketish, jahl kelganda òzini yòqotib qòyish).
2. Agressiyaning jismoniy oğzaki va boshqa butun jamiyat uchun nomaqbul axloq qonun – qoidalar bilan bogliq shakllari (odatda, ular ijtimoiylashuv xususiyatlari, aksilijtimoiy xulq – atvor me'yorlarining mustahkamlanishi bilan bogliq bòladi).
3. Jamiyatda qabul qilingan axloq qonun – qoidalarini yetarlicha òzlashtirilmaganligi yoki xatti – harakatlarini idora etish imkonini beruvchi xususiy sifatlarni tòliq shakllanganligi bilan bogliq agressiyaning turli kòrinishlari (ta'lim – tarbiya kòrmaganlik).
4. Ayrim kuzatuvchilar tomonidan agressivlik haq – huquqlarini poymol qilish, birovga ziyon yetkazish gumonini paydo qiladigan, boshqa bir kuzatuvchilar tomonidan qat'iylik, faollik sifatida talqin qiladigan barcha xatti – harakatlar.

Agressiv xulq – atvor bu inson bilan vaziyatning òzaro ta'siri natijasidir. Agressivlik sifat va miqdor tavsiflariga ega bòlib, barcha xossalar kabi u ham turli darajalarda ifodalanadi. Deyarli tòliq nomavjudlikdan to yetarlicha rivojlangan agressivlikkacha namoyon bòladi. Agressiv xulq – atvor asosini agressivlik motivi tashkil etadi.

Xulosa òrnida aytish mumkinki, har qanday holatning sababi bòlgani kabi agressivlikning ham òz sabablari bòlishi mumkin. Biz bolalardagi agressivliklar ijtimoiy muhitga, oilaga va tengqurlariga bogliq ekanligini bilib oldik. Mana shu bogliqliklarni bilgan holatda, bolalardagi agressivlikni oldini olish chora – tadbirlarini kòrish, shu bilan bir qatorda psixologlar bilan ham ishlash maqsadga muvofiq bòladi. Shu jihatdan agressiyaga qarshi birgalikdagi kurash, bizlarni muvaffaqiyat sari yetaklaydi!

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. V. Karimova. "Ijtimoiy psixologiya va amaliyot". – T.: 2009
2. V. Karimova, O. Xayitov. "Shaxsning ijtimoiylashuv masalasi". – T.:2007
3. N. Ismoilova, D. Abdullayeva. "Ijtimoiy psixologiya". – T.: 2013
4. M. Axmedova " Pedagogik konfliktologiya" – T.: 2016
5. S.L. Rubinshteyn . Umumiy psixologiya asoslari 2006.